# BMTDA YETIM VA OTA-ONA QARAMOĞIDAN MAHRUM BÖLGAN BOLALAR HUQUQLARINI HIMOYA QILIŞNING ASOSIY HUQUQIY MEXANIZMLARI

**Turdibekov Ahror Otay öğli**
Toşkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvçisi.
*turdibekovahror99@gmail.com*
*https://doi.org/10.5281/zenodo.24275508*

***Annotatsiya.*** *Maqolada Birlaşgan Millatlar Taşkiloti (BMT) doirasida yetim va ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalar huquqlarini himoya qilişning normativ asoslari va institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Bola huquqlari böyiça qömitaning faoliyati, davlatlar ma'ruzalarini körib çiqiş, umumiy şarhlar va uçinçi fakultativ protokol asosidagi individual murojaat mexanizmi, şuningdek, BMT Boş Assambleyasi, Iqtisodiy va ijtimoiy kengaş (EKOSOS), Inson huquqlari kengaşi, BMT Bolalar jamğarmasi (YuNISEF), Xalqaro mehnat taşkiloti (XMT) va BMTning Ta'lim, fan va madaniyat masalalari böyiça taşkiloti (YuNESKO) roli yoritilib, mexanizmlarning Özbekistonda amalga oşirilişi baholanadi.*

***Аннотация.*** *В статье анализируются нормативные основы и институциональные механизмы защиты прав детей-сирот и детей, оставшихся без попечения родителей, в рамках ООН. Раскрываются деятельность Комитета по правам ребёнка, рассмотрение докладов государств, замечания общего порядка и механизм индивидуальных сообщений по третьему факультативному протоколу, а также роль Генеральной Ассамблеи, ЭКОСОС, Совета по правам человека, ЮНИСЕФ, МОТ и ЮНЕСКО; оценивается их реализация в Узбекистане.*

***Annotation.*** *The article analyses the normative framework and institutional mechanisms for protecting the rights of orphans and children deprived of parental care within the United Nations. It covers the Committee on the Rights of the Child, the review of State reports, General Comments and the individual communications procedure under the Third Optional Protocol, as well as the roles of the General Assembly, ECOSOC, the Human Rights Council, UNICEF, the ILO and UNESCO, and assesses their implementation in Uzbekistan.*

***Kalit sözlar:*** *BMT, Bola huquqlari böyiça qömita, huquqiy mexanizm, fakultativ protokol, YuNISEF, yetim bolalar, ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalar.*

## Kiriş

Yetim va ota-ona qaramoğidan mahrum bölgan bolalar huquqlarini himoya qiluvçi xalqaro normalar samarali mexanizmlarsiz öz ahamiyatini yöqotadi: ularning amalda ta'minlanişi normalarning bajarilişini kuzatuvçi, şarhlovçi va rivojlantiruvçi institutlar faoliyatiga boğliq.

Birlaşgan Millatlar Taşkiloti (BMT) uşbu sohada eng keng qamrovli universal tizimni şakllantirgan bölib, uni örganiş milliy himoya tizimini takomillaştiriş uçun muhimdir.

## Material va metodlar

Tadqiqotda formal-yuridik, institutsional tahlil, qiyosiy-huquqiy, statistik ma'lumotlarni örganiş hamda umumlaştiriş usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqot natijalari**

***Xalqaro-huquqiy asoslar***

Asosiy universal hujjat – 1989-yil 20-noyabrda qabul qilingan Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyadir[1]. Uning 20-moddasiga köra, oilaviy muhitdan vaqtinça yoki doimiy mahrum bölgan bola davlatning alohida himoya va yordamiga haqli; muqobil ğamxörlik şakllari sifatida oilaga tarbiyaga beriş, “kafola”, farzandlikka oliş, zarurat bölganda esa muassasaga joylaştiriş nazarda tutilgan. Bunga 3-modda (bola manfaatlarining ustuvorligi), 9-modda (bolani ota-onasidan faqat vakolatli organlarning sud nazorati ostidagi qarori bilan ajratiş), 12-modda (bolaning fikri), 21-modda (farzandlikka oliş), 25-modda (joylaştirişni davriy körib çiqiş) va 39-modda (reabilitatsiya va reintegratsiya) qöşiladi.

Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiya normalarini 2009-yilgi Bolalarni muqobil ğamxörlik bilan ta’minlaş böyiça yöriqnomalar aniqlaştiradi. Ular majburiy kuçga ega bölmasa-da, Boş Assambleya davlatlarni ularni hisobga olişga da’vat etgan; moddiy qiyinçilik bolani ota-ona qaramoğidan ajratişning yagona asosi bölmasligi, muassasaviy joylaştiriş esa faqat muayyan bola uçun eng mos, zarur va foydali bölgan hollardagina qöllanilişi ta’kidlanadi[2]. Şunday qilib, xalqaro huquq “muassasaga joylaştiriş”dan oilaviy muhitni saqlaşni ustun qöyişni afzal köradi.

Mazkur tadqiqot doirasida huquqiy mexanizm deganda normalar, ularni qöllovçi xalqaro institutlar hamda ma’ruza beriş, monitoring, şikoyatlarni körib çiqiş kabi tartib-taomillar yiğindisi tuşuniladi. Bola huquqlarini himoya qiluvçi taşkilotlar universal (BMT, Xalqaro mehnat taşkiloti – XMT) va mintaqaviy, şuningdek, hukumatlararo va nodavlat (Xalqaro Qizil Xoç qömitasi, “Save the Children”, SOS Bolalar qişloqlari) taşkilotlarga bölinadi.

***Bola huquqlari böyiça qömita***

Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyaning 43-moddasiga binoan 1991-yilda taşkil etilgan Bola huquqlari böyiça qömita BMTning şartnomaviy organi bölib, iştirokçi davlatlar saylaydigan, mustaqil faoliyat yurituvçi 18 nafar ekspertdan iborat. Davlatlar Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyaga qöşilganidan keyin ikki yil içida boşlanğiç, söngra har beş yilda davriy ma’ruza taqdim etadi (44-modda). Qömitaning yakuniy mulohazalari yuridik majburlov kuçiga ega emas, biroq ularni inobatga olmaslik Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiyaga hurmatsizlik sifatida baholanadi.

Qömita Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiya normalariga rasmiy şarhlar – umumiy izohlar qabul qiladi. Masalan, 14-son umumiy izoh (2013) bola manfaatlarini birinçi darajali e’tibor sifatida hisobga oliş huquqini mazmuniy huquq, talqin tamoyili va protsessual qoida sifatida izohlaydi [3] ; bu muqobil ğamxörlikka joylaştiriş haqidagi qarorlar uçun bevosita ahamiyatga ega.

[1] Convention on the Rights of the Child: adopted by UN General Assembly resolution 44/25 of 20 November 1989; entered into force 2 September 1990 // United Nations Treaty Series. – Vol. 1577. – P. 3. – Arts. 3, 9, 12, 20, 21, 25, 39. – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/crc.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026); şuningdek qarang: Bola huquqlari tõgrisidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari / mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Özbekiston Respublikasi Inson huquqlari böyiça milliy markazi, 2009.

[2] Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Annex. – URL: https://digitallibrary.un.org/record/673583 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[3] Committee on the Rights of the Child. General comment № 14 (2013) on the right of the child to have his or her best interests taken as a primary consideration (art. 3, para. 1). – UN Doc. CRC/C/GC/14. – 29 May 2013. – Para. 6. – URL: https://undocs.org/CRC/C/GC/14 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

Qömita 2005-yil 16-sentabrda “Ota-ona qaramoğidan mahrum bolalar” mavzusidagi umumiy muhokama kunini ötkazib, oiladan ajralişning oldini oliş va uydan taşqari ğamxörlik muammolarini muhokama qilgan[4].

2011-yilda qabul qilingan va 2014-yil 14-aprelda kuçga kirgan uçinçi Fakultativ protokol bolalar yoki ularning vakillariga milliy himoya vositalari tugaganidan söng Qömitaga murojaat qiliş, Qömitaga esa huquqlar qöpol yoki tizimli buzilganda suriştiruv ötkaziş imkonini beradi[5].

Yetim bolalar öz huquqlarini mustaqil himoya qilişda eng zaif bölgani uçun bu mexanizm ular uçun alohida ahamiyatga ega. Qömita 2022-yilda Özbekistonga uşbu protokolni ratifikatsiya qilişni tavsiya etgan[6]; 2025-yildan unga qöşiliş masalasi ekspert darajasida örganilmoqda[7].

***Boş Assambleya, Iqtisodiy va ijtimoiy kengaş (EKOSOS), Inson huquqlari kengaşi va Oliy komissar***

BMT Ustavining 13-moddasiga köra, Boş Assambleya tadqiqotlar uyuştiradi va tavsiyalar beradi, 22-moddasiga köra esa yordamçi organlar tuzadi. Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyaning 44-moddasi 5-bandiga köra, Qömita har ikki yilda EKOSOS orqali Boş Assambleyaga öz faoliyati töğrisida ma’ruza taqdim etadi; EKOSOS XMT, BMTning Ta’lim, fan va madaniyat masalalari böyiça taşkiloti (YuNESKO) kabi ixtisoslaşgan muassasalar bilan bitimlar tuzib, ularning faoliyatini muvofiqlaştiradi. 2006-yilda Inson huquqlari komissiyasi örniga Boş Assambleyaning yordamçi organi sifatida Inson huquqlari kengaşi taşkil etildi; u yiliga kamida uç marta sessiya ötkazadi, maxsus tartiblar va Universal davriy körib çiqiş mexanizmini yuritadi[8].

Boş Assambleya bola huquqlari böyiça muntazam rezolyutsiyalar qabul qiladi, bolalarga nisbatan zöravonlik (62/141-son rezolyutsiya) va qurolli mojarolardagi bolalar böyiça Boş kotibning maxsus vakillari lavozimlarini ta’sis etgan. 1993-yilgi 48/141-son rezolyutsiya bilan ta’sis etilgan Inson huquqlari böyiça Oliy komissar Boş kotib örinbosari darajasiga ega bölib, Inson huquqlari kengaşi va Boş Assambleyaga hisobot beradi[9].

***Ixtisoslaşgan muassasalar va dasturlar***

YuNESKO savodsizlikka qarşi kuraş va majburiy boşlanğiç ta’lim tamoyilini ilgari surib, 1960-yilgi Ta’lim sohasida kamsitişlarga qarşi kuraş töğrisidagi konvensiyani qabul qilgan.

[4] Committee on the Rights of the Child holds Day of General Discussion on “Children without parental care” (Geneva, 16 September 2005): meeting summary // UN Geneva [Elektron resurs]. – URL: https://www.ungeneva.org/en/news-media/meeting-summary/2005/09/committee-rights-child-holds-day-general-discussion-children (murojaat sanasi: 09.11.2026).

[5] Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on a communications procedure: UN General Assembly resolution 66/138 of 19 December 2011. – Arts. 5, 7, 13. – URL: https://undocs.org/A/RES/66/138 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[6] Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/5. – 27 October 2022. – Para. 51. – URL: https://www.ecoi.net/en/file/local/2079509/G2253375.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[7] The issue of Uzbekistan’s accession to the Convention on the Rights of the Child Protocol by the UN is being studied // Darakchi.uz. – 2025. – 13 February [Elektron resurs]. – URL: https://darakchi.uz/en/196291 (murojaat sanasi: 05.11.2026).

[8] Human Rights Council: UN General Assembly resolution 60/251 of 15 March 2006. – UN Doc. A/RES/60/251. – Paras. 1, 5(e), 6, 10. – URL: https://undocs.org/A/RES/60/251 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[9] High Commissioner for the promotion and protection of all human rights: UN General Assembly resolution 48/141 of 20 December 1993. – UN Doc. A/RES/48/141. – URL: https://digitallibrary.un.org/record/180226/files/A_RES_48_141-EN.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).

1919-yilda taşkil etilgan XMT işga qabul qilişning minimal yoşini belgilovçi 138-son va bolalar mehnatining eng yomon şakllari – savdo, majburiy mehnat, fohişabozlikka jalb etişni taqiqlovçi 182-son konvensiyalarni qabul qilgan[10]; ota-ona qaramoğidan mahrum bolalar bu xavflarga köproq duçor böladi.

1946-yil 11-dekabrda Boş Assambleyaning 57 (I)-son rezolyutsiyasi bilan ta'sis etilgan BMT Bolalar jamğarmasi (YuNISEF) 1965-yilda Nobel tinçlik mukofotiga sazovor bölgan. U Bola huquqlari töğrisidagi konvensiyani öz faoliyatining dasturamali sifatida qabul qilgan va ixtiyoriy xayriyalar hisobidan moliyalaştiriladi.

**Tadqiqot natijalari tahlili**

UNICEFning 2017-yilgi hisob-kitobiga köra, dunyoda kamida 2,7 million bola muassasaviy ğamxörlikda yaşaydi; Markaziy va Şarqiy Yevropa hamda Markaziy Osiyo mintaqasida bu körsatkiç 100 ming bolaga 666 nafarni taşkil etib, jahon örtaça körsatkiçidan beş baravardan köp[11]. Xalqaro mexanizmlarning asosiy çeklovi ularning tavsiyaviy xarakteridir: Qömita 2013-yilda Özbekiston böyiça 2006-yilgi tavsiyalarning köpçiligi töliq bajarilmaganidan afsuslanişini bildirgan[12].

Özbekiston Qömitaga boşlanğiç va beşinçi davriy ma'ruzagaça bölgan barça ma'ruzalarini taqdim etgan, Qömita ular yuzasidan 2001, 2006, 2013 va 2022-yillarda yakuniy xulosalar qabul qilgan. Milliy darajada bola huquqlari kafolatlarini 2008-yilgi "Bola huquqlarining kafolatlari töğrisida"gi Qonun belgilaydi[13]. Qömita 2022-yilgi xulosalarida uşbu Qonunga kiritilgan özgartirişlar, 2021-yilda Bola huquqlari böyiça vakil (Bolalar ombudsmani) lavozimining joriy etilişi va Bolalar masalalari böyiça milliy komissiya faoliyatini ijobiy baholagan. 2024-yil 29-fevraldagi ÖRQ-917-son Qonun bilan Bolalar ombudsmanining maqomi alohida qonunda belgilandi[14]. Qömita tavsiyalarini amalga oşiriş yuzasidan Oliy Majlis palatalari Kengaşlarining 2024-yil 21-fevraldagi qöşma qarorida yetim bolalar ijtimoiy himoyasi töğrisidagi qonun loyihasini tayyorlaş, deinstitutsionalizatsiya strategiyasini qabul qiliş va uç yoşgaça bolalarni muassasalarga joylaştirişni töxtatiş vazifalari belgilangan[15]. 2026-yil 11-sentabrdagi ÖRQ-1174-son Qonun bilan esa Oila kodeksida oilaviy joylaştirişning ustuvorligi mustahkamlandi[16].

[10] Minimum Age Convention, 1973 (No. 138) (Geneva, 26 June 1973) // ILO NORMLEX [Elektron resurs]. – URL: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312283; Worst Forms of Child Labour Convention, 1999 (No. 182) (Geneva, 17 June 1999). – Art. 3 // ILO NORMLEX [Elektron resurs]. – URL: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312327 (murojaat sanasi: 09.11.2026).

[11] Data gaps on children in residential care leave the most vulnerable unaccounted for: UNICEF press release, 1 June 2017 [Elektron resurs]. – URL: https://www.unicef.org/media/media_96099.html (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[12] Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the combined third and fourth periodic reports of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/3-4. – 14 June 2013. – Para. 6. – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/english/bodies/crc/docs/co/CRC-C-UZB-CO-3-4.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[13] Özbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari töğrisida"gi ÖRQ-139-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-1297315 (murojaat sanasi: 02.10.2026).

[14] Özbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi "Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari böyiça vakili (Bolalar ombudsmani) töğrisida"gi ÖRQ-917-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6823379 (murojaat sanasi: 05.11.2026).

[15] Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşi va Senati Kengaşining 2024-yil 21-fevraldagi "Bola huquqlari töğrisidagi konvensiya qoidalarini amalga oşiriş böyiça Özbekistonning Beşinçi davriy ma'ruzasi

**Xulosa**

Yetim va ota-ona qaramoğidan mahrum bolalar huquqlarini himoya qilişning BMT doirasidagi huquqiy mexanizmi uç böğindan iborat: normativ asos (1989-yilgi Bola huquqlari töğrisidagi konvensiya, uning fakultativ protokollari va 2009-yilgi Yöriqnomalar), institutsional tizim (Bola huquqlari böyiça qömita, Boş Assambleya, Inson huquqlari kengaşi, Oliy komissar, YuNISEF, XMT, YuNESKO) hamda milliy amalga oşiriş.

Qömita xulosalarining tavsiyaviy xarakteri sababli mexanizmning haqiqiy samaradorligi uçinçi böğin – milliy amalga oşiriş bilan belgilanadi. Şu bois Özbekiston milliy qonunçiligini Bola huquqlari töğrisidagi konvensiya va Qömitaning yakuniy xulosalaridagi tavsiyalarga izçil moslaştirib borişi, uçinçi Fakultativ protokolni ratifikatsiya qiliş masalasini körib çiqişi lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar röyxati**

1. Convention on the Rights of the Child: adopted by UN General Assembly resolution 44/25 of 20 November 1989; entered into force 2 September 1990 // United Nations Treaty Series. – Vol. 1577. – P. 3. – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/crc.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026); şuningdek qarang: Bola huquqlari töğrisidagi konvensiya va uning fakultativ protokollari / mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Özbekiston Respublikasi Inson huquqlari böyiça milliy markazi, 2009.
2. Guidelines for the Alternative Care of Children: UN General Assembly resolution 64/142 of 18 December 2009. – UN Doc. A/RES/64/142. – Annex. – URL: https://digitallibrary.un.org/record/673583 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
3. Committee on the Rights of the Child. General comment № 14 (2013) on the right of the child to have his or her best interests taken as a primary consideration (art. 3, para. 1). – UN Doc. CRC/C/GC/14. – 29 May 2013. – URL: https://undocs.org/CRC/C/GC/14 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
4. Committee on the Rights of the Child holds Day of General Discussion on "Children without parental care" (Geneva, 16 September 2005): meeting summary // UN Geneva [Elektron resurs]. – URL: https://www.ungeneva.org/en/news-media/meeting-summary/2005/09/committee-rights-child-holds-day-general-discussion-children (murojaat sanasi: 09.11.2026).
5. Optional Protocol to the Convention on the Rights of the Child on a communications procedure: UN General Assembly resolution 66/138 of 19 December 2011. – URL: https://undocs.org/A/RES/66/138 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
6. Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the fifth periodic report of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/5. – 27 October 2022. – URL: https://www.ecoi.net/en/file/local/2079509/G2253375.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).

yuzasidan BMTning Bola huquqlari böyiça qömitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etiş töğrisida"gi 4068-IV/KQ-688-IV-son qöşma qarori // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6848811 (murojaat sanasi: 05.11.2026).

[16] Özbekiston Respublikasining 2026-yil 11-sentabrdagi "Bolalarni ijtimoiy himoya qiliş tizimi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qöşimça va özgartirişlar kiritiş töğrisida"gi ÖRQ-1174-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8472495 (murojaat sanasi: 05.11.2026).

7. The issue of Uzbekistan's accession to the Convention on the Rights of the Child Protocol by the UN is being studied // Darakchi.uz. – 2025. – 13 February [Elektron resurs]. – URL: https://darakchi.uz/en/196291 (murojaat sanasi: 05.11.2026).
8. Human Rights Council: UN General Assembly resolution 60/251 of 15 March 2006. – UN Doc. A/RES/60/251. – URL: https://undocs.org/A/RES/60/251 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
9. High Commissioner for the promotion and protection of all human rights: UN General Assembly resolution 48/141 of 20 December 1993. – UN Doc. A/RES/48/141. – URL: https://digitallibrary.un.org/record/180226/files/A_RES_48_141-EN.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).
10. Minimum Age Convention, 1973 (No. 138) (Geneva, 26 June 1973) // ILO NORMLEX [Elektron resurs]. – URL: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312283; Worst Forms of Child Labour Convention, 1999 (No. 182) (Geneva, 17 June 1999) // ILO NORMLEX [Elektron resurs]. – URL: https://normlex.ilo.org/dyn/nrmlx_en/f?p=NORMLEXPUB:12100:0::NO::P12100_INSTRUMENT_ID:312327 (murojaat sanasi: 09.11.2026).
11. Data gaps on children in residential care leave the most vulnerable unaccounted for: UNICEF press release, 1 June 2017 [Elektron resurs]. – URL: https://www.unicef.org/media/media_96099.html (murojaat sanasi: 02.10.2026).
12. Committee on the Rights of the Child. Concluding observations on the combined third and fourth periodic reports of Uzbekistan. – UN Doc. CRC/C/UZB/CO/3-4. – 14 June 2013. – URL: https://www.ohchr.org/sites/default/files/english/bodies/crc/docs/co/CRC-C-UZB-CO-3-4.pdf (murojaat sanasi: 02.10.2026).
13. Özbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi "Bola huquqlarining kafolatlari tögrisida"gi ÖRQ-139-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-1297315 (murojaat sanasi: 02.10.2026).
14. Özbekiston Respublikasining 2024-yil 29-fevraldagi "Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Bola huquqlari böyiça vakili (Bolalar ombudsmani) tögrisida"gi ÖRQ-917-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-6823379 (murojaat sanasi: 05.11.2026).
15. Özbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunçilik palatasi Kengaşi va Senati Kengaşining 2024-yil 21-fevraldagi "Bola huquqlari tögrisidagi konvensiya qoidalarini amalga oşiriş böyiça Özbekistonning Beşinçi davriy ma'ruzasi yuzasidan BMTning Bola huquqlari böyiça qömitasi tavsiyalarini amaliyotga tatbiq etiş tögrisida"gi 4068-IV/KQ-688-IV-son qöşma qarori // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/docs/-6848811 (murojaat sanasi: 05.11.2026).
16. Özbekiston Respublikasining 2026-yil 11-sentabrdagi "Bolalarni ijtimoiy himoya qiliş tizimi takomillaştirilişi munosabati bilan Özbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qöşimça va özgartirişlar kiritiş tögrisida"gi ÖRQ-1174-son Qonuni // Qonunçilik ma'lumotlari milliy bazasi [Elektron resurs]. – URL: https://lex.uz/uz/docs/-8472495 (murojaat sanasi: 05.11.2026).